



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT  
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Kiritdi”**

**O‘zbekiston davlat  
san‘at va madaniyat  
instituti rektori**

  
N.B. Sayfullayev  
“01” 06 2024-y  


**“Kelishildi”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi**

  
“01” 06 2024-y  


**“Tasdiqlayman”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi**

  
“01” 06 2024-y  


**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211000 – San‘atshunoslik: san‘at jurnalistikasi  
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

- 1. San‘at jurnalistikasi fanidan**
- 2. San‘at asarlari tahlili fanidan**

**Toshkent-2024**

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv - uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil \_\_\_\_\_ -sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**

- A.Z.Rizayev – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi
- F.M.Abduvohidov – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası dotsenti, (PhD)

**Taqrizchilar:**

- M.T.To‘laxo‘jayeva – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası professori, san’atshunoslik fanlari doktori
- A.H.Ismoilov – San’atshunoslik instituti teatr va xoreografiya bo‘limi mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## **Kirish**

60211000 – San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi bakalavriyat ta’lim yo’nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, meyoriy-huquqiy xusjlatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o’tkaziladi.

Ixtisoslik bo’yicha kirish imtihonlari, har bir ixtisoslik uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o’tkaziladi.

Ixtisoslik bo’yicha imtihon o’tkazilishining ketma-ketligi, institut qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalari shakllantiriladi.

60211000 – San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi - san’at sohasidagi ta’lim yo’nalishi bo’lib, o’z ichiga san’atlar (teatr, kino, musiqa, tasviriy san’at va h.k.) tarixi, nazariyasi va zamonaviy jarayonlarini o’rganish, san’at asarlarining mavzusi, badiiy-g’oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy mazmun-mohiyati xususida ilmiy va muammoli maqolalar, taqrizlar yozish, ilmiy-ommabop adabiyotlar yaratish, san’at namoyandalari hamda san’at sohasidagi ijodiy jarayonlar, yutuq va muammolar to’g’risida tadqiqotlar olib borish, olingan natijalarni OAVda keng yoritish majmuini qamrab oladi.

### **Fanning maqsadi va vazifasi**

60211000 – San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi bakalavriyat ta’lim yo’nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning San’at jurnalistikasi, San’at asarlari tahlili fanlaridan ijodiy - ilmiy ko’nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning san’at jurnalistikasi va san’at asarlari tahlili fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradi.

### **San’at jurnalistikasi fani bo’yicha**

San’at jurnalistikasi fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og’zaki javob beradi. Savol-javob jarayonida abituriyent o’zining ilmiy va ijodiy salohiyatini ko’rsatishi lozim. Savol-javob san’at turlariga tegishli mavzular doirasida o’tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo’yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati, kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

- san’at jurnalistikasi faniga qo’yiladigan talablar:
- san’at jurnalistikasi to’g’risida umumiy tasavvuri;
- o’zbek san’at jurnalistikasining yirik namoyandalari haqida tasavvuri;
- san’at jurnalistikasining asosiy yo’nalishlari haqida tasavvurga ega bo’lishi;
- san’at asarlarining tur va janrlari haqidagi tasavvuri;
- san’at namoyandalari haqida tasavvurga ega bo’lishi;
- san’at asarlarini bir-biridan farqlay olishi;
- san’at asarlarini tahlil qila olishi;

- san'at asarlarini yorituvchi jurnal va gazetalardan, ijtimoiy tarmoqlardan xabardorligi;
- kino, televideniye va radio san'ati haqidagi tasavvuri;
- o'zbek san'at jurnalistlari faoliyatidan xabardorligi;
- dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish mahorati sinovdan o'tkaziladi.

### **San'at asarlari tahlili fani bo'yicha**

San'at asarlari tahlili fanidan suhbat jarayonida abiturentning san'atlar xususiyati, ijtimoiy-ma'naviy, madaniy va tarbiyaviy vazifalari, badiiy ijodning keng ommaga ta'siri haqidagi tasavvurlari sinovdan o'tkaziladi.

San'at asarlari tahlili faniga qo'yiladigan talablar:

- san'at va uning turlaridan xabardorligi;
- san'at turlarining ma'naviy-tarbiyaviy vazifasi haqidagi tasavvuri;
- hayotiylik, haqqoniylik va badiiylik tushunchalari haqidagi tasavvuri;
- teatr, kino, teleradio, musiqa, tasviriy san'at, xoreografiya, raqs kabi san'atlar haqidagi tasavvuri;
- ilmiy, badiiy, abadiy, davriy, dolzarb (aktual), muammoli, publitsistik mavzularni bir-biridan farqlay olishi;
- asarning g'oyaviy tushunchasini anglashi;
- janr tushunchasini anglashi;
- badiiy asar dramaturgiyasi haqidagi tushunchasi;
- o'zbek teatrlari faoliyatidan xabardorligi;
- o'zbek kinosining bugungi jarayonlari haqidagi tasavvuri;
- o'zbek estrada san'ati haqidagi tasavvuri;
- o'zbek san'atini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlardan xabardorligi sinovdan o'tkaziladi.

### **Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar**

**San'at jurnalistikasi** fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og'zaki javob beradi. Savol-javob turli san'atlarga tegishli mavzular doirasida o'tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo'yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati, kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

**San'at jurnalistikasi** fanidan abituriyentlarga qo'yiladigan talablar: san'at jurnalistikasi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, o'zbek san'at jurnalistikasining yirik namoyandalari haqida bilishi, san'at jurnalistikasining asosiy yo'nalishlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, san'at asarlarining tur va janrlari, san'at namoyandalari haqida tasavvurga ega bo'lishi, san'at asarlarini bir-biridan farqlay olishi, san'at asarlarini tahlil qila olishi, san'at asarlarini yorituvchi jurnal va gazetalardan, ijtimoiy tarmoqlardan xabardorligi, kino, televideniye va radio san'ati

haqidagi tasavvuri, ommaviy axborot vositalarida san'at masalalarining yoritilishidan xabardorligi, o'zbek san'at jurnalistlari faoliyatidan xabardorligi, madaniyati va ma'naviy qiyofasi yuqori bo'lishi kerak.

–**San'at asarlari tahlili** fanidan abituriyent san'at va uning turlaridan, san'atning ma'naviy-tarbiyaviy vazifasidan, hayotiylik, haqqoniylik va badiiylik tushunchalaridan, teatr, kino, teleradio, musiqa, tasviriy san'at, xoreografiya, raqs kabi san'atlar xususiyatidan, ilmiy, badiiy, adadiy, davriy, dolzarb (aktual), muammoli, publitsistik mavzularning farqli jihatlaridan, asarning g'oyaviyligi tushunchasidan; janr tushunchasidan, badiiy asar kompozitsiyasi hamda o'zbek teatrlari faoliyatidan, o'zbek kinosining bugungi jarayonlaridan, o'zbek estrada san'atidan hamda o'zbek san'atini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan bugungi islohotlardan xabardor bo'lishi kerak.

**Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:**  
**San'at jurnalistikasi fani bo'yicha**

<b>T.r.</b>	<b>Talabning mazmuni</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	San'at va uning turlari bo'yicha umumiy tasavvuri	10
2.	San'atshunoslik sohasi haqida tushunchasi	10
3.	Yetuk san'atkorlar va san'atshunos olimlar faoliyatidan xabardorligi	10
4.	Ommaviy-axborot vositalari haqida tushunchasi	10
5.	Jurnalistika haqida tushunchasi	10
6.	Yetuk jurnalistlar faoliyatidan xabardorligi	9
7.	San'at masalalarini yoritishga mo'ljallangan maxsus nashrlar haqida tasavvuri	10
8.	San'at asarlarini tahlil qila olishi	8
9.	O'zbekistonda san'atni rivojlantirish sohasida olib borilayotgan islohotlardan xabardorligi	10
10.	Abituriyentning dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish qobiliyati	6
	<b>Hammasi</b>	<b>93</b>

## San'at asarlari tahlili fani bo'yicha

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	San'at va uning turlari bo'yicha umumiy tasavvuri	6
2.	San'atning tarbiyaviy ahamiyati va ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni haqidagi tushunchasi	8
3.	San'at asarlarini tahlil qila olishi	6
4.	San'at asarlarining dramaturgiyasi haqida bilimi	8
5.	San'at asarlarining janr xususiyatlari haqida tasavvuri	6
6.	San'at asarlarida mavzu va g'oya tushunchasi	6
7.	San'at asarlarida tarixiylik va badiiy to'qima obrazlar haqida tushunchasi	6
8.	San'at sohasidagi ilmiy adabiyotlardan xabardorligi	8
9.	San'at asarlarida milliy va umumbashariy qadriyatlarning aks etishi haqida tushunchasi	6
10.	San'at asarlarini milliy mentalitetimizga yot bo'lgan salbiy harakatlardan muhofaza qilish haqidagi tasavvuri	6
	<b>Hammasi</b>	<b>63</b>

### Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211000 – San'atshunoslik: san'at jurnalistikasi bakalavriyat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun jadval asosida belgilangan kunlarda ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlarda suhbat, savol – javob asosida maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

### Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayatiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyent haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

## **Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

1. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 4 avgust, 153-son.
3. “Madaniyat va san‘at sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.- T.:2017-yil 15-fevral.
4. Abdusamatov X. Drama nazariyasi. –T.: G‘afur G‘ulom. 2000.
5. Abduazizova N. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi – T.: Akademiya, 2002.
6. Bayandiyev T. San‘at masalalari – teatrshunos nigohida – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2009.
7. Ma‘naviyat yulduzlari – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999.
8. Qodiriy A. Diyori bakr – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Ikromov H. Davr va teatr – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
10. Telejurnalistika asoslari. T.: Universitet, 2000.
11. Tursunov T. Sahna va zamon – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
12. To‘laxo‘jayeva M. Qozoqboyev T. Drama nazariyasi. –T.: Fan, 2015.
13. Tursunboyev S. O‘zbek teatri sarhadlarida – T., 2009.
- 14.Cho‘lpon. Adabiyot nadir? — T.: Cho‘lpon, 1994.
15. Fixtelius Erik. Jurnalistikaning o‘n qoidasi. T: Sharq, 2002.
16. Qozoqboyev T. Jurnalistika asoslari – T.: Musiqa, 2006.
17. O‘zbekiston san‘ati. To‘plam. T., 2000.
- 18.Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. T.: Universitet, 2009.

### **Internet saytlari**

1. [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
2. <http://www.teatr.ru>
3. <http://www.uzbekteatr.skm.uz>
4. [teatr.com](http://teatr.com)
5. <http://www.mxat.ru>
6. [ttp://www.dsmi.uz](http://www.dsmi.uz)